



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI

SIRDARYO VILOYATINING
DEMOGRAFIK HOLATI

2022- yil
yanvar-dekabr



SIRDARYO VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2023-yil 1-yanvar holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Sirdaryo viloyatida 2023 yil 1- yanvar holatiga doimiy aholi soni **896,6** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 18,0 ming kishiga yoki **2,0 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **386,3** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **43,1 %**), qishloq aholisi soni **510,3** ming kishi (**56,9 %**) ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

896,6*ming
kishi*

Tabiiy o'sish

+19,0*ming
kishi*

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

Shahar



Qishloq





**43,1 %****56,9 %**

Sirdaryo viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

2022- yil yanvar-dekabr

**Doimiy aholi sonining taqsimlanishi**


2023- yil 1- yanvar holatiga

Erkaklar**Ayollar****50,2%****450,2 ming kishi****446,4 ming kishi**

Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi*2023-yil 1- yanvar holatiga, ming kishi*

	2021- yil	2022- yil	O'sish sur'ati, % da
Sirdaryo viloyati	878,6	896,6	102,0
<i>shahar:</i>			
Guliston sh	93,4	100,1	107,2
Shirin sh	19,0	19,3	101,6
Yangiyer sh	45,3	46,8	103,3
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin t	54,0	54,7	101,3
Boyovut t	134,1	135,2	100,8
Sayxunobod t	80,1	81,2	101,4
Guliston t	76,0	77,0	101,3
Sardoba t	68,3	69,1	101,2
Mirzaobod t	77,1	78,1	101,3
Sirdaryo t	132,3	134,7	101,8
Xovos t	99,0	100,4	101,4


Sirdaryo viloyati bo‘yicha aholi zichligi dinamikasi
2023-yil 1- yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to‘g‘ri keladigan aholi soni, kishi




Sirdaryo viloyatida 2023- yil 1- yanvar holatiga 1 kvadrat kilometrga o‘rtacha **209,5** kishi to‘g‘ri kelgan. Bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **4,2** kishiga ortgan (2022- yil 1-yanvar holatiga 1 kv.km.ga **205,5** kishi to‘g‘ri kelgan).

Hududlar bo‘yicha qaraydigan bo‘lsak, aholi zichliginig eng yuqori ko‘rsatkichi Guliston shahrida **2764,4** kishi, Yangiyer shahrida **1559,0** kishi, Shirin shahrida **1437,1** kishi, Boyovut tumanida **258,8** kishi, Sirdaryo tumanida **242,8** kishini tashkil etgan bo‘lsa, eng past ko‘rsatkichlar Oqoltin tumanida **99,3** kishi, Mirzaobod tumanida **122,8** kishini tashkil etgan.

QAYD ETILGAN TUG'ILISHLAR



Shahar va tumanlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti
2022- yil yanvar-dekabr holatiga, kishi




2022- yil yanvar-dekabr oylarida **23,3** mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **26,3** promilleni tashkil etdi hamda bu ko'rsatkich 2021- yilga nisbatan **-0,4** promillega pasayganligi kuzatildi (2021- yil yanvar-dekabr oylarida **26,7** promilleni tashkil etgan).

VAFOT ETGANLAR




Sirdaryo viloyatida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti 2022- yil yanvar-dekabr, kishi





2022- yilning yanvar-dekabr oylarida 4,3 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti 4,8 promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan ko'rsatkich bir xil (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ham 4,8 promille bo'lgan).

O'limning asosiy sabablar bo'yicha taqsimlanishi

2022- yil yanvar-dekabr, % da




2022- yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan o'lim holatining **71,6** % – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 2,3 % ovqat hazm qilish a`zolari kasalliklaridan –, 2,0 % – nafas olish a'zolari kasalliklaridan, **10,5%** – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 2,3 % – ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, **10,5** % boshqa kasalliklardan vafot etganlar va 0,8 % -yuqumli va parazitar kasalliklardan vafot etganlar.


QAYD ETILGAN NIKOHLAR

Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti
2022- yil yanvar-dekabr, birlik


2022- yilning yanvar-dekabr oylarida **7,7** mingta nikoh qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **8,7** promille tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **0,6** promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida **9,3** promille bo‘lgan).

NIKOHDAN AJRALISHLAR



Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti
2022- yil yanvar-dekabr, kishi




2022- yil yanvar-dekabr oylarida **1,8** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **2,0** promille niyalari tashkil etgan hamda 2021-yilga nisbatan **0,4** promille oshganligi kuzatildi (2021- yil yanvar-dekabr oylarida **1,6** promille bo‘lgan).

JAMI KO‘CHIB KELGANLAR




Ko‘chib kelganlar soni va koeffitsiyenti

2022- yil yanvar-dekabr, kishi




2022- yilning yanvar-dekabr oylarida **6,9** mingta ko‘chib kelganlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga ko‘chib kelish koeffitsiyenti **7,8** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **2,2** promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida **10,0** promille bo‘lgan).

JAMI KO‘CHIB KETGANLAR



Ko‘chib ketganlar soni va koeffitsiyenti 2022- yil yanvar-dekabr, kishi



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida **7,8** mingta ko‘chib ketganlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga ko‘chib ketish koeffitsiyenti **8,8** promille tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **2,8** promille kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida **11,6** promille bo‘lgan).

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtida muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shilib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayrıldi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilda jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilda jami o'lganlar sonini hisobot yildagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalikklar, patologik holatlari va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlari fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilda tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.



1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

Ko‘chib kelganlar soni – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishslash natijasida ko‘chib kelish.

Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishslash natijasida ko‘chib ketish.

Aholining migrantsion o‘sishi (farqi) – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi

Tel: 71 2368632